# ONA TILI

1. **Unlilardan qaysilari so`z tarkibida qo`shimcha sifatida uchramaydi?**
   A. u, o`, o
   B. i, e, u
   C. a, o, i
   D. e, o`,o
2. **Qaysi so`zda hosil bo`lishida og`iz bo`shlig`ida, umuman, to`siqqa uchramay chiquvchi undosh tovush ishtirok etgan?**
   A. xato
   B. hatto
   C. yo`l
   D. g`am
3. **Noto`g`ri yozilgan so`zlar qaysi qatorda berilgan?**
   A. Azo, shavqat, avf
   B. Nizo, rizo, sement
   C. Nifoq, simob, sisterna
   D. Suron, sur`at, qur`a
4. **Tutuq belgisining noto`g`ri qo`llanilishi qaysi javobda kuzatiladi?**
   A. Mas`uma o`z vazifasini a`lo bajardi
   B. Mash`um kunlarni eslash kerakmi?
   C. Mas`ul shaxslar ko`paydi.
   D. Ma`muriyatga yangi topshiriq berildi.
5. 1.Universitetni sog`indim. 2. Yegan og`iz uyalar. 3. Shirin tushlar ko`ring. **Berilgan gaplarda ma`no ko`chishining qaysi turlari ifodalangan?**
   A. Metafora
   B. Sinekdoxa, metafora
   C. Metonemiya, sinekdoxa
   D. Metonemiya, sinekdoxa, metafora
6. **So`zlarda ko`pma`nolilik qanday hosil bo`ladi?**
   A. So`z yasalishi orqali
   B. Omonimlik asosida
   C. Ma`no ko`chishi orqali
   D. Chetdan so`z olish orqali
7. Kecha kun bo'yi yomg'ir yog'ib, bu kun tindi, quyosh va to'zigan bulutlar yetilayozgan ertangi sholipoyalarga qarab birin-ketin panjalarini cho'zmoqdalar. **Berilgan gapda qaysi mustaqil so`z turkumlari ishtirok etmagan?**
   A. Sifat, son
   B. Olmosh, ravish
   C. Olmosh, son
   D. Ravish, sifat
8. Quyosh va bulutlar orasidagi bu ahamiyatsiz o'yinning dastlabki ahamiyatsiz tarixi va ahamiyatsiz o'yinlari so'nggi bobda qisqacha bayon etiladi. **Berilgan gapda yasama so`zlar soni nechta?**
   A. 6ta
   B. 7ta
   C. 8ta
   D. 9ta
9. **Yuqoridagi gapda aniqlangan yasama so`zlar qaysi so`z turkumlariga tegishli?**
   A. Sifat, ravish, ot
   B. Fe`l, ot, sifat
   C. Sifat, ravish, fe`l
   D. Ot, sifat, ravish, fe`l
10. **8-savol matnida so`z yasovchi qo`shimchalar soni nechta?**
    A. 5ta
    B. 6ta
    C. 7ta
    D. 8ta
11. **Uning yugurdaklari xizmatchilari politsiyalari itlari otlari va otboqari butun qishloqni larzaga keltirdi. Tushirib qoldirilgan vergullar soni nechta?**

A. 1ta

B. 2ta

C. 3ta

D. 4ta

**12. Yuqoridagi gapda nechta so`z birikmasi bor?**

A. 3ta

B. 4ta

C. 5ta

D. 6ta

13. Dastlab o‘qituvchining diqqatini jalb qilish uchun ashula aytdi, so‘ng xat yozdi, oxiri yozganlarini tebrana-tebrana bor tovushi bilan qichqirib o‘qidi, hech qanday natija chiqmadi. **Berilgan gap tuzilish jihatidan qanday gap?**

A. Uyushiq bo`lakli sodda gap

B. Kiritma gapli murakkablashgan sodda gap

C. Qo`shma gap

D. Murakkab qo`shma gap

**14. 13-savoldagi gap tarkibida gap bo`laklaridan qaysi biri ishtirok etmagan?**

A. Hol

B. Aniqlovchi

C. To`ldiruvchi

D. Barcha bo`lak ishtirok etgan?

**15. Berilgan javoblarning qaysi birida sifatlovchi aniqlovchi ibora bilan ifodlangan?**

A. O`qigan bola elga manzur.

B. Tuproq ko`chalardan o`tishga to`g`ri keldi.

C. Kelishgan yigit ekanmi?

D. Tegirmonga tushsa butun chiqadigan odam edi.

**16. Berilgan gaplarning qaysi birida vazifadosh modal so`z ishtirok etgan?**

A. Ertaga, albatta, o`qib kelaman.

B. Darhaqiqat, imtihon adolatli bo`ldi.

C. To`g`ri, o`qigan o`z maqsadiga yetadi.

D. Avvalo, inson sabrli bo`lishi kerak.

**17. Vazifadosh bog`lovchilar qaysi qatorda to`g`ri berilgan?**

A. lekin, balki

B. va, ham

C. hamda, -u, -yu

D. balki, -u, -yu, da

**18. Kim sabrli bo`lsa, tinimsiz mehnat qilsa, u,albatta, muvaffaqiyatga erishadi. Gap murakkab qo`shma gapning qasi turiga mansub?**

A. Bir necha ergash gapli qo`shma gap

B. Bir necha bosh gapli qo`shma gap

C. Qismlari uyushgan qo`shma gap

D. Aralash qo`shma gap

**19. Qaysi nutq uslubi aralash uslub ham deb yuritiladi, unda barcha nutq namunalaridan vaziyatga ko`ra foydalanish mumkin?**

A. Ilmiy

B. Rasmiy

C. Badiiy

D. Publitsistik

**20. Ko`chirma gap muallif gapiga nisbatan qanday joylashadi?**

1. Muallif gapidan oldin. 2. Muallif gapidan so`ng. 3. Muallif gapining ichida. 4. Muallif gapi ko`chirma gap ishida.

A. 1,3

B. 1,4

C. 1,2,3

D. 1,2,3,4

21. Usmon Nosir Samarqanda o`qib yurgan paytlarida onasiga atab she`riy maktub yozadi. Uning nomi qaysi qatorda keltirilgan.

A. Gulzor chaman

B. Bolaligimga

C. Gulzor chaman

D. Oq yuvib, oq tarab

22. Kim antik davr shoiri Homerning asarlarini o`zbek tiliga tarjima qilgan?

A. Oybek

B. Usmon Nosir

C. Mirtemir

D. Mirmuhsin

23. Xalq og`zaki ijodining maxsus turiga kirmaydigan janrni aniqlang.

A. Masal

B. Maqol

C. Metal

D. Topishmoq

24. "Qutadg`u bilig" asari ofiyat ramzi kim?

A. Kuntug`di

B. Oyto`ldi

C. O`gdulmish

D. O`zg`urmish

25. Qaysi asarlar urush asoratlari haqida?

1. Urushning so`nggi qurboni 2. Tushda kechgan umrlar 3. Ufq 4. Jimjitlik 5.Chinor 6. Ikki eshik orasi 7. Shnelli yillar 8. Bemor 9. Anor

A. 1,2,3,6,7

B. 1,2,3,4,5

C. 1,6,7,8,9

D. 7,8,9

26. Xudoyberdi To`xtaboyevning mustaqillik yillarida yozgan asari qaysi?

A. Sariqdevni minib

B. Sariqdevning o`limi

C. Beshbolali yigitcha

D. Jannati odamlar

27. Egzyuzerining hikoyasi qaysi qatorda berilgan?

A. Harbiy uchuvchi

B. Uchuvchi

C. Kichkina shahzoda

D. Tungi parvoz

28. Navoiyning nasriy asarlarida boda so`zi qanday ma`noda ishlatiladi.

A. Majoziy

B. Mast qiluvchi ichimlik

C. Iymon

D. Vijdon

29. Navoiyning "Jong`a chun derman..." radifli g`azalida qaysi a`zolar so`roq qilinadi?

A. Ko`z, burun, quloq

B. Soch, lab, bag`ir

C. Jon, jism, bag`ir, ko`ngil, ko`z

D. Yurak, jism, quloq, ko`z, jon

30. Qaysi asarda er urushdan xat jo`natganda hamma oila a`zolari so`rab bo`lingandan so`ng eng oxirida tilga olinuvchi kelinchak obrazi mavjud?

A. O`tkir Hoshimov "Tushda kechgan umrlar"

B. Said Ahmad "Ufq"

C. Chingiz Aytmatov "Jamila"

D. Odil Yoqubov "Muqaddas"